

## ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA ODDIY FOLKLORIZM

Nigina Quvvatova,

*O‘zMU Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti O‘zbek adabiyotshunosligi yo‘nalishi  
I kurs magistranti,*

*Annotatsiya.* maqolada zamonaviy o‘zbek she‘riyatidagi oddiy folklorizmlarga e‘tibor qaratilib, ularning badiiy matnda tutgan o‘rni va stilizatsiyasining ayrim jihatlari tadqiq etiladi.

*Kalit so‘zlar:* folklorizm, stilizatsiya, zamonaviy o‘zbek she‘riyati, intertekstuallik, folklor motivlari, badiiy niyat, ma‘no serqatlamligi.

*Annotation.* The article focuses on simple folklorisms in modern Uzbek poetry and examines their role in the literary text as well as certain aspects of their stylization.

*Keywords:* folklorism, stylization, modern Uzbek poetry, intertextuality, folklore motifs, artistic intention, semantic multilayeredness.

*Аннотация.* В статье уделяется внимание простым фольклоризмам в современной узбекской поэзии, исследуются их роль в художественном тексте, а также отдельные аспекты их стилизации.

*Ключевые слова:* фольклоризм, стилизация, современная узбекская поэзия, интертекстуальность, фольклорные мотивы, художественный замысел, многослойность смысла.

**Kirish.** Folklorizmning badiiy matnda, xususan, she‘riyatdagi ahamiyati juda katta. U, odatda, matn badiiyliigi va ma‘no serqatlamligini oshirib, uning ta‘sirchanligiga xizmat qiladi. Folklorizm (ingl. folk-lore — “xalq bilimi”, “xalq ijodi”) – adabiyotda folklorga xos jihatlardan foydalanib u yoki bu tur va janrda qayta yaratish, talqin qilishdir. Boshqacha aytganda, folklorizm da xalq og‘zaki ijodiga xos hodisalar yozma adabiyot arxitektonikasiga ijodkorona singdirib yuboriladi. Folklorizmning oddiy va murakkat turlari farqlanadi. Maqol, matal, har turli iboralar, og‘zaki nutqda ko‘p uchraydigan turg‘un ifodalar oddiy folklorizmni tashkil etsa, folklorga xos syujet, epizod va qahramonlarga murojaat qilish, ularni qaytadan ishlab badiiy matn yaratish murakkab folklorizmni hosil qiladi.

Ayni damda, folklorizmlar matnda intertekstuallik asosida sodir bo‘lishini alohida ta‘kidlamok kerak. Bu haqda tilshunos olim D. Adaniyozava shunday yozadi: “Intertekstuallikni yuzaga keltiruvchi vositalardan biri folklor materiallari bo‘lib, qahramon holati, ichki kechinmalari yoki voqealar tafsiloti bayonida bunday materiallardan keng foydalaniladi. Ma‘lumki, badiiy matnning makoniy ko‘lamini abstraksiyalash hamda makon bilan bog‘liq sirlilik, mavhumlikni bo‘rttirib ifodalashda xalq og‘zaki ijodidagi joy nomlari poetik vosita sifatida xizmat qiladi”.

**Adabiyotlar sharhi.** Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida folklorizmlar, xususan oddiy folklorizmlar masalasi adabiyotshunoslik va folklorshunoslikning muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Folklor va yozma adabiyot o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir, folklor unsurlarining badiiy matndagi funksiyasi hamda stilistik imkoniyatlari ko‘plab olimlar tomonidan turli jihatlarda o‘rganilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida folklorizm tushunchasi, uning badiiy adabiyotdagi o'rni va ifoda shakllari haqida dastlabki ilmiy qarashlar H. Zarifov, M. Jo'rayev, B. Sarimsoqov, T. Mirzayev, Sh. Turdimov kabi olimlarning ishlarida bayon etilgan. Ushbu tadqiqotchilar folklor motivlari, obrazlari, poetik shakllari va til birliklarining yozma adabiyotga kirib kelish jarayonini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berganlar. Ayniqsa, folklor elementlarining zamonaviy badiiy tafakkurda yangicha talqin qilinishi masalasi ularning ilmiy izlanishlarida muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida folklor motivlarining qo'llanishi va stilizatsiya masalalari R. Qo'ng'urov, N. Karimov, U. Normatov, D. Quronov, A. Rasulov kabi adabiyotshunos olimlarning ilmiy ishlarida tahlil qilingan. Ular she'riyatda xalqona obrazlar, maqol va matallar, qo'shiqlar, marosim unsurlarining badiiy ifoda vositasi sifatida ishlatilishini yoritganlar. Ayniqsa, folklorizmlarning poetik semantikasi va obrazlilik darajasini aniqlash masalasi ushbu tadqiqotlarda muhim o'rin tutadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot zamonaviy o'zbek she'riyatida oddiy folklorizmlarning badiiy matndagi o'rni, stilistik funksiyasi va semantik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi.

Avvalo, tahlil va sintez metodi asosida zamonaviy o'zbek shoirlari asarlaridagi folklorizmlar aniqlanib, ularning umumiy va o'ziga xos jihatlari tizimlashtirildi. Ushbu metod yordamida folklor birliklarining badiiy matndagi funksiyasi, semantik yuklamasi va obrazlilik darajasi tahlil qilindi.

Qiyosiy-tahliliy metod orqali folklorizmlar turli shoirlar ijodida qanday qo'llanilgani o'zaro taqqoslandi. Bu metod folklor unsurlarining individual uslubdagi o'rni va badiiy talqinidagi farqlarni aniqlash imkonini berdi.

Lingvopoetik metod yordamida folklorizmlarning poetik struktura va badiiy tasvir vositalari bilan bog'liqligi o'rganildi. Ushbu metod folklor birliklarining obraz yaratish, emotsional ta'sir kuchini oshirish va badiiy matnning estetik qiymatini belgilashdagi rolini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, tadqiqotda lingvokulturologik metod qo'llanildi. Bu metod folklorizmlarni milliy madaniyat, an'ana va urf-odatlar bilan bog'liq holda talqin qilish imkonini berdi. Natijada folklor birliklarining badiiy matnda madaniy ma'no tashuvchi belgilar sifatidagi funksiyasi yoritildi.

Bundan tashqari, intertekstual tahlil metodi orqali zamonaviy she'riy matnlar va folklor manbalari o'rtasidagi aloqalar aniqlanib, folklorizmlarning matnlararo bog'liqlikni ta'minlashdagi roli ochib berildi.

Sir emas, yangi o'zbek adabiyoti XX asr avvalidan, xususan, jadidlar ijodidan boshlangan. Folklor motivlaridan foydalanish romanchilik asoschisi sanalmish A.Qodiriyning romanlaridan tortib, Avloniy, Hamza kabi shoirlar she'rlarida ko'p uchraydi. Keyinroq esa 20-yillar avlodining zabardast vakili H.Olimjon o'z ijodini xalq

og‘zaki ijodi motivlari, badiiy vositalari, ohanglari va detallari bilan to‘yintirishi natijasida shoir she‘rlari va dostonlari ravon o‘qiladi, oson yod olinadi.

**Natijalar.** Folklorizmlar keyinroq Mirtemir, T. Sulaymon, U.Azim, M. Yusuf, H.Shodmon kabi shoirlar ijodida o‘zining yangi qirralarini namoyon qildi. T.Sulaymon folklorizmlari haqida prof. U.Hamdammov shunday yozadi: “Xalqchilligi, musiqiyliigi, tig‘iz folklorizmi va turg‘unlashgan iboralarga boyligi, sodda ifodasi bir tomonda, boshqa tomonda, bularning bari zimnida – xalqning dardi, kayfiyati ufurib turgani bois ham shoir T. Sulaymon she‘rlari el aro sevib o‘qiladi. Bitiklarning ko‘pdan ko‘p qo‘shiq'larga aylanganligining tub sabablarini ham shu yerdan qidirmoq kerak. Nafsilamrini aytganda, T.Sulaymon kabi shoirlarning eng yaxshi bitiklari avvalboshdanoq qo‘shiq bo‘lib dunyoga keladi. Shoir o‘z she‘rlarini “o‘lanlarim, termalarim” deya bejiz erkalamagan. O‘lan va termalar, ayni damda, qo‘shiq'lardir. Zero, ular ko‘pincha ijroga mo‘ljallangan bo‘lib, baxshilar tomonidan aytiladi. Shoirning baxshichilikka, baxshilarga alohida muhabbati, yaqinligi, o‘zini mudom baxshilar sinovidagi shoir deb bilishining zaminida ham katta ma‘no bor:

Mezbonlar yo‘qlovi – so‘rog‘idaman –

Tog‘oshar baxshining sinog‘idaman . [5:97. ]

Shuningdek, shoir o‘langa, umuman, xalq og‘zaki ijodiga yaqinlikning o‘lmaslikka ishora deb biladi. Chunki xalq hayoti yakka shaxs umriga qiyos qilinganda mangudir: “O‘lmaslikka ishora – o‘langa oshiq'ligim”. [ 5:258.]

Ko‘rinadiki, adabiyotshunos olim T.Sulaymon she‘riyatining kuchi, qo‘ri, umrboqiyliigi uning xalqona mazmun va xalqchil ifodasida ekanligiga alohida urg‘u bermoqda.

“Xo‘sh, zamonaviy o‘zbek she‘riyatida folklorizm o‘zini qanday namoyon qilmoqda?”, degan tabiiy savol tug‘iladi. Ma‘lumki, “Aks”, “Izlam” seriyasida talay yoshlarning she‘riy to‘plamlari chop qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi “Ijod” fondi tashabbusi bilan ko‘plab yosh ijodkorlarning nasriy, nazmiy, publitsistik va dramatik asarlari kitob holida nashr qilindi. Ayni damda, kitoblar boshqa nashriyotlardan ham paydar-pay chiqib, o‘quvchi qo‘liga yetib bormoqda. Ularni varaqlaganimizda, xalq og‘zaki ijodiga ergashmalar, ulardan ta‘sirlanishlarni ko‘ramiz hamda bu hol folklorga oid motivlar, detallar va iboralarning o‘ziga xos stilizatsiya qilish ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

Aytaylik, shoir Muhammad Siddiqning “Toshbaqa”

she‘rini o‘qiymiz:

Osmon uzoq,

Qattiq yer,

Tiriklik,

Bola-chaqa.

Hammasiga jim ko‘nib,

Toshdan to‘n kiydi baqa.

Bu o‘ziga xos rebus she‘r bo‘lib, toshbaqa – allegorik obrazning to‘ni, ya‘ni kosasi vositasida inson hayoti mashaqqatlariga ishora qilinmoqda. YA‘ni osmon uzoq, yer esa qattiqligi inson qo‘lining kaltaligiga, uning nochorligiga sha‘ma. Hobuki, uning bola-chaqasi, tirikligi, tirikchiligi bor. Ammo ta‘qidlanganidek, u uchun osmon uzoq, yer esa qattiq. Shunday ekan, turmush mashaqqatlari u kiygan to‘nni toshdan qilib qo‘ygan. Natijada oddiy baqa toshbaqaga aylanib qolgan. Bu yerda qo‘llanilgan “osmon uzoq, yer qattiq” xalq iborasi yordamida shoir badiiy niyatini o‘quvchiga ta‘sirchanroq yetkaza olyaptiki, ushbu hol she‘rda o‘ziga xos oddiy folklorizmni vujudga keltirgan. Ayni damda, “Osmon uzoq, yer qattiq” xalq iborasi intermatn sifatida she‘rdan joy olgan.

Shoirninng “Pushti ro‘mol” nomli she‘ridan o‘qiymiz:

Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi,

Oy siniq nurlarin sochaverarkan.

Almisoqdan qolgan bu eski gap-ku,

yangi-yangi ma‘no ochaverarkan.

Bu yerda birvarakayiga ikkita oddiy folklorizmga duch kelamiz: “Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi” va “Almisoqdan qolgan”. Shoir badiiy niyatiga ko‘ra mo‘jazgina she‘rida ularni stilizatsiya qilgan. Shu bilan birga, she‘r ma‘nosida eski va yangining qarama qarshi qo‘yish (tazod san‘ati) mavjud: eski gap, yangi ma‘no. “Aylanayin” nomli she‘rida esa lirik qahramon mo‘min, yuvosh otasini ta‘rif qilar ekan, xalqning “qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan” iborasini ishlatadi.

Quyidagi she‘r bo‘lsa, boshdan oyoq folklorizm asosiga qurilgan:

Tiz cho‘kib etagin

o‘paman endi,

Pir bo‘ldi

hafsalam.

“Tiz cho‘kmoq, “Etagini o‘pmoq”, “Xafsalasi pir bo‘lmoq”. Bu yerda shoir o‘zidan faqatgina “endi” degan she‘rni qo‘shgan. “Endi” so‘zi bog‘lovchi vazifasini o‘tagan.

Zamonaviy o‘zbek she‘riyatining yana bir namoyandasi shoira Zebo Nur ham folklor an‘nalariga murojaat qilib turadi. Uning quyidagi she‘rida “Anqo urug‘i” iborasi badiiy maqsadning ravshan tortishiga xizmat qildirilgan:

Avval zamon bir naql bo‘lardi:

Anqo urug‘i deyishardi

kamyob narsaga.

Hozir topsa bo‘ladi,

Ko‘pchilik hatto unutdi bu so‘zlarni.

Bilasanmi, hozir nima urfda?

Chin do‘st kamayib ketyapti

Insoniyat ichida

She'rd a so'z chin do'st haqida so'z bormoqda. Bunday do'st haqida so'z ketganda negadir shoira ning xayoliga "Anqoning urug'i" degan xalq iborasi keladi. Ilgari topilmaydigan narsaga "Anqoning urug'i" deya ta'rif berishardi, hozir hatto shu urug'ni ham topsa bo'ladi, biroq boshqa narsa kamayib ketgan. Xo'sh, u nima? Javob: chin do'st. "Anqoning urug'i"ni topish mumkin bo'lgan zamonda chin do'stni topish – amri mahol. Bu yerda "Anqoning urug'i" va "chin do'st" tushunchalari o'zaro qarama qarshi qo'yilib, o'ziga xos tazodni vujudga keltirmoqda.

**Xulosa** qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy o'zbek she'riyatida oddiy folklorizmni stilizatsiya qilish an'nalari dadil davom etmoqda. Ular deyarli barcha avlod vakillari ijodiga xos bo'lib, shoir badiiy niyatini o'quvchiga ta'sirchan shaklda yetkazib berishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sulaymon T. Sensiz yolg'iz, g'arib bo'ldim... – Toshkent: "Movarounnahr", 2013.
2. Hamdamov U. "O'zbek va jahon adabiyotiga chizgilar. – Toshkent: "QAMAR MEDIA", 2026.
3. Siddiq M. "Musofir daraxt". – Toshkent: "Sahhof", 2025.
4. Zebo N. "Men keldim...- Toshkent: Akademnashr 2025.

